



## OG'IZ BO'SHLIG'I O'SMALARINING PATOMORFOLOGIK VA KLINIK-ANATOMIK XUSUSIYATLARI

*Xursandboyeva Muxsina Shavkatovna*

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi*

*O'zbekiston, Toshkent*

*E-mail: xursandboyevamuxsina@gmail.com*

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada og'iz bo'shlig'i a'zolari va to'qimalarida uchraydigan o'smalarning patologik anatomiyasi, ularning tasnifi, gistologik tuzilishi hamda patogenezing zamonaviy jihatlari yoritilgan. Ayniqsa, xavfli o'smalarning erta bosqichdagi morfologik o'zgarishlari va ularning differensial diagnostikasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Patologik anatomiya, og'iz bo'shlig'i saratoni, epitelial o'smalar, karsinoma, gistologik differensirovka, prekanserogenez.

### Аннотация:

В данной статье освещены современные аспекты патологической анатомии, классификации, гистологического строения и патогенеза опухолей органов и тканей полости рта. Особое внимание уделено морфологическим изменениям злокачественных новообразований на ранних стадиях и их дифференциальной диагностике.

Ключевые слова: Патологическая анатомия, рак полости рта, эпителиальные опухоли, карцинома, гистологическая дифференцировка, преканцерогенез.

### Abstract:

This article highlights modern aspects of pathological anatomy, classification, histological structure, and pathogenesis of tumors occurring in the organs and tissues



of the oral cavity. Particular attention is paid to the morphological changes of malignant tumors at early stages and their differential diagnosis.

Keywords: Pathological anatomy, oral cancer, epithelial tumors, carcinoma, histological differentiation, precancerogenesis.

## 1. KIRISH

Og'iz bo'shlig'i o'smalari zamonaviy onkostomatologiya va patologik anatomiya fanining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Dunyo miqyosida xavfli o'smalarning 3-5% qismi aynan og'iz bo'shlig'i sohasiga to'g'ri keladi. Ushbu soha a'zolarining anatomik-fiziologik murakkabligi, doimiy mexanik va kimyoviy ta'sirlar ostida bo'lishi o'smalarning rivojlanishi va metastazlanish jarayonini tezlashtiradi.

## 2. OG'IZ BO'SHLIG'I O'SMALARINING TASNIFI

Patologik anatomiya og'iz bo'shlig'i o'smalari kelib chiqishiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Epitelial o'smalar: Eng ko'p uchraydigan turi (xavfsiz – papillaomalar; xavfli – yassi hujayrali saraton).

Mezenximal o'smalar: Biriktiruvchi to'qima, tomirlar va mushaklardan hosil bo'ladi (fibroma, angioma, mioma, sarkoma).

Glandulyar o'smalar: So'lak bezlaridan kelib chiqadigan adenomalar va adenokarsinomalar.

Gematopoetik o'smalar: Limfoma va boshqalar. [1].”

## 3. XAVFSIZ O'SMALARNING PATOMORFOLOGIYASI

Papilloma: Ko'p qavatli yassi epiteliyning o'sib ketishi natijasida hosil bo'ladi. Makroskopik jihatdan "gulkaram" shaklida bo'lib, mikroskop ostida epiteliyning akantoz va giperkeratoz holatlari kuzatiladi.

Fibroma: Biriktiruvchi to'qimadan rivojlanadi, chegaralangan va sekin o'suvchi tugun shaklida bo'ladi.



#### 4. XAVFLI O‘SMALAR: YASSI HUJAYRALI SARATON (CARCINOMA)

Og‘iz bo‘shlig‘i xavfli o‘smalarining 90% dan ortig‘ini yassi hujayrali saraton tashkil etadi. Uning ikki turi tafovut qilinadi:

Muguzlanuvchi turi: Bunda karsinoma hujayralari kerato-gialin ishlab chiqaradi va to‘qima ichida "saraton marvaridlarini" hosil qiladi.

Muguzlanmaydigan turi: Hujayralar yuqori darajadagi atipizmga ega, mitoz jarayonlari tez va patologik kechadi. [2].’’

#### 5. O‘SMA OLDI KASALLIKLARI (PREKANSEROGENEZ)

Saraton rivojlanishidan oldin to‘qimalarda ma’lum morfologik o‘zgarishlar yuz beradi. Bularga Leykoplakiya (shilliq qavatning muguzlanishi) va Eritroplakiya kiradi. Patogistologik jihatdan epiteliyda displaziya darajalari (yengil, o‘rta, og‘ir) aniqlanishi onkologik sergaklikni talab etadi. [2].’’

#### 6. METASTAZLANISH VA ASORATLAR

Og‘iz bo‘shlig‘i saratoni asosan limfogen yo‘l bilan bo‘yin limfa tugunlariga (submandibulyar, servikal) metastaz beradi. O‘sma parchalanishi natijasida ikkilamchi infeksiya qo‘shilishi, yiringli yallig‘lanish va qon ketish kabi og‘ir asoratlar kuzatiladi. [3].’’

#### 7. XULOSA

Og‘iz bo‘shlig‘i o‘smalarining patologik anatomiyasini chuqur o‘rganish klinik diagnostikada hal qiluvchi ahamiyatga ega. Gistologik tekshiruvlar orqali o‘smaning differensirovka darajasini aniqlash, davolash taktikasini to‘g‘ri belgilash va prognozni bashorat qilish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] Abdurahmonov M.M. "Patologik anatomiya", Toshkent, 2022.
- [2] Kumar V., Abbas A. "Robbins Basic Pathology", 10th Edition, 2018.
- [3] O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi klinik protokollari.

Ziyonet kutubxonasi uchun umumiy link: <https://ziyonet.uz/uz/library>